Ключевые слова: обязательства, капитал, пассив, стабильные депозиты, депозиты до востребования, срочные депозиты, сберегательные депозиты, межбанковские кредиты, внебалансовые активы, субординированный долг, нематериальные активы, чистая прибыль, активы, взвешенные по риску, трансформация, дефицит.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmonida¹ “Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarga banklarning bardoshlilikini ta'minlash maqsadida makroprudensial buferlar yaratish choralarini ko'rib borish” kabi ustuvor yo'nalishlar, maqsad va vazifalar belgilab berilgan [1].

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/en/docs/-5841063>



Banklar resurs bazasi ko'rsatkichlarini tizimlashtirishning asosiy maqsadi — ularning resurslar holatini va ulardan foydalanish samaradorligini kompleks tarzda baholashdan iboratdir. Ushbu tizimga kiritilgan ko'rsatkichlardan tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini ta'minlash hamda ularning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish jarayonida samarali foydalanish mumkin.

Tijorat banklarining resurs bazasi mustahkamligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish banklarning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, likvidlikni saqlash va kutilmagan moliyaviy zararlarga bardosh berish qobiliyatini ta'minlaydi. Resurs bazasining yetarli darajada mustahkam bo'lmashligi bankning moliyaviy ahvolini zaiflashtirishi, kreditlash faoliyatini cheklashi hamda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, resurs bazasining barqarorligini oshirish bank tizimining umumiy moliyaviy sog'lomligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari moliyaviy tizimning eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Ularning resurs bazasining barqarorligi nafaqat alohida bankning, balki butun milliy moliyaviy tizimning ishonchliligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi banklarga o'z resurs bazasining holatini tahlil qilish, zaif tomonlarni aniqlash va ularni mustahkamlash bo'yicha samarali choralar ko'rish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash hamda mijozlar manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank ishi va statistika sohasiga oid ilmiy manbalar hamda tadqiqotlarda bir qator olimlar tijorat banklari faoliyatini baholash uchun mo'ljallangan turli ko'rsatkichlar tizimini taklif etganlar. Xususan, Shirinskaya E. B., Ponomareva N. A. va Kupchinskiy V. A. [2] tijorat banklari faoliyatini to'lov qobiliyati va likvidlik nuqtayi nazaridan tavsiflovchi 30 ta ko'rsatkichdan iborat tizimni ishlab chiqqanlar.

V. V. Ivanov [3] esa mazkur tizimni yanada takomillashtirib, unga qo'shimcha 12 ta ko'rsatkichni kiritgan.

Pomorina M. A. [4] tomonidan bankning joriy faoliyatini monitoring qilish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- bank operatsiyalarining umumiy hajmi va tuzilmasini tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar guruhi;
- aktiv va passiv operatsiyalarning muvofiqligini monitoring qilish hamda joriy risklar darajasini aniqlash uchun ko'rsatkichlar guruhi;
- amalga oshirilayotgan operatsiyalar samaradorligini monitoring qilish uchun ko'rsatkichlar guruhi.

Shuni ta'kidlash joizki, ayrim ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimlarida bank faoliyatini statistik baholashda kompleks yondashuv yetarlicha qo'llanilmagan, bu esa tahlilning chuqurligini cheklaydi. Shu bois, iqtisodchilar banklar faoliyatini ko'rsatkichlar tizimi orqali kompleks tarzda baholashga intilmoqdalar. Bunday yondashuv statistik tahlilning aniqligi va amaliy qiymatini sezilarli darajada oshiradi.

Gilyarovskaya L. G. va Panevina S. N. hammuallifligidagi [5] adabiyotda taklif etilgan ko'rsatkichlar tizimi oltita mikroblokdan iborat bo'lib, u bank faoliyatini har tomonlama baholash imkonini beradi:

Birinchi mikroblok – “Bank aktivlari va majburiyatlari sifatini tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlari”;

Ikkinchi mikroblok – “Bankning to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlari”;

Uchinchi mikroblok – “Bankning o'z mablag'lari (kapitali) yetarililigi baholashning asosiy ko'rsatkichlari”;

To'rtinchi mikroblok – “Kredit riskini baholashning asosiy ko'rsatkichlari”;

Beshinchi mikroblok – “Foiz riski va bankning aktiv-passiv operatsiyalari muvozanatini baholashning asosiy ko'rsatkichlari”;

Oltinchi mikroblok – “Bank faoliyatining moliyaviy natijalarini baholashning asosiy ko'rsatkichlari”.

Batrakova L. G. [6] tomonidan ishlab chiqilgan statistik ko'rsatkichlar tizimi ham banklar faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi. U besh blokdan iborat bo'lib:

- birinchi blok – “Bank tizimi tuzilmasi ko'rsatkichlari”;
- ikkinchi blok – “Resurs bazasini shakllantirish ko'rsatkichlari”;
- uchinchi blok – “Mablag'larni joylashtirish ko'rsatkichlari”;
- to'rtinchi blok – “Bank biznesi va ishlab chiqarishning o'zaro aloqasi ko'rsatkichlari”;
- beshinchi blok – “Faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari”.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda qo'llaniladigan usul va modellar xorijlik taniqli olimlarning tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Edward Altman va Robert Merton kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan uslublar, shuningdek CAMELS reyting tizimi moliyaviy barqarorlikni baholashda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Altman Z-Score modeli, amerikalik iqtisodchi Edvard Altman tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, korxona yoki bankning moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash ehtimolini baholash va bankrotlik xavfini bashorat qilish uchun qo'llaniladi [7].



CAMELS reyting tizimi esa moliyaviy barqarorlikni baholashda keng qo'llaniladigan model hisoblanadi. Ushbu tizim kapitalning yetariligi, aktivlar sifati, boshqaruv darajasi, daromadlilik, likvidlik va risklilik kabi asosiy ko'rsatkichlarni baholashga imkon beradi.

CAMELS modeli bank tizimini kompleks tahlil qilish, moliyaviy zaif tomonlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, model bank faoliyatida operatsion va ma'muriy risklarni aniqlash, ularni boshqarishning samarali mexanizmlarini shakllantirish va nazorat tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur model banklarning ichki boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish, ularning risklardan qochish strategiyasini baholash hamda moliyaviy sog'lomligini monitoring qilishda muhim vosita hisoblanadi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil natijalariga ko'ra, tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishda tizimli yondashuv, ma'lumotlarni umumlashtirish va strukturaviy tahlil usullari qo'llanildi. Ushbu metodologiya bank faoliyatining resurs bazasini baholashda ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish, iqtisodiy va statistik omillarni kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarning resurs bazasi statistik ko'rsatkichlari tizimi ma'lum iqtisodiy va statistik talablarga qat'iy rioya etilgan holda tuzilishi lozim. Ko'rsatkichlarni tizimlashtirishga qo'yiladigan umumiy iqtisodiy talablar quyidagilardan iborat: bank resurs bazasi holatini to'liq aks ettirish, resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishda ichki hamda tashqi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olish, shuningdek bank resurs bazasi rivojlanishiga muvofiq ularni doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlash.

Banklar resurs bazasi ko'rsatkichlari tizimiga qo'yiladigan statistik talablar esa quyidagilarni o'z ichiga oladi: ko'rsatkichlarni hisoblashda yagona metodologiyaning mavjudligi, bank resurslarini statistik ko'rsatkichlarda kompleks va to'liq aks ettirish, tizimdagi ko'rsatkichlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, ularning analitik mazmunini maksimal darajada ochish hamda natijalarni iqtisodiy jihatdan talqin qilish imkoniyati.

Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni shakllantirishda biz murakkab, ko'p darajali yondashuvdan (ya'ni resurslarning shakllanishi, joylashuvi, potentsiali, barqarorligi, samaradorligi, risklilik darajasi va harakati kabi ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilishdan) tashqari, uni soddalashtirilgan, amaliy qo'llash uchun qulay ko'rinishda ifodalashga harakat qildik.

Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Strukturaviy (tarkibiy) ko'rsatkichlar.

Banklar faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u doimiy monitoring va nazoratni talab etadi. Ushbu nazorat, avvalo, bank aktivlari va passivlarining tarkibiy tahlilini o'tkazishni nazarda tutadi. Bu tahlil bank faoliyati natijasida shakllanadigan moliyaviy ko'rsatkichlarning dinamikasini aniqlash va baholash imkonini beradi. Ma'lumotlar sifatini chuqur tahlil qilish, ularning o'zgarish tendensiyasini aniqlash va bank faoliyatining moliyaviy samaradorligini oshirish uchun oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Bank balansining tuzilishini strukturaviy tahlil qilish masalasi alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlarda olimlar va mutaxassislar bank balansining optimal tuzilmasini aniqlash, aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan turli yondashuvlarni taklif etganlar.

Bank balansini optimallashtirish strategik jihatdan muhim vazifalardan biridir, chunki har bir bank faoliyati davomida minimal xarajatlar bilan maksimal foyda olishga intiladi. Buning uchun esa aktivlar va passivlar sifatini doimiy ravishda nazorat qilish zarur.

Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ifodalovchi strukturaviy (tarkibiy) ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishdan maqsad — bank resurs bazasining optimal tuzilishini ta'minlaydigan samarali mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir.

Shuningdek, tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ifodalovchi strukturaviy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish jarayonida bank resurslarining milliy va xorijiy valyutadagi nisbatlari, majburiyatlarning tarkibiy tuzilishi, ularning muddatlar bo'yicha taqsimlanishi hamda boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur yondashuv bankning resurs bazasi sifatini yanada chuqur tahlil qilish, uning tarkibiy barqarorligini aniqlash va samaradorligini oshirish imkonini beradi (1-jadval).



1-jadval. Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ifodalovchi strukturaviy (tarkibiy) ko'rsatkichlar tizimi

№	Ko'rsatkich	Formula	Iqtisodiy mazmuni
1.	Bank majburiyatlarining ulushi	$\text{Majburiyatlar} / \text{passiv} \times 100$	Mazkur ko'rsatkich 88–90 % atrofida bo'lganda, bank kapitali yetarli darajada shakllangan hisoblanadi. Bu bankning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatining mustahkamligini ko'rsatadi.
2.	Barqaror bo'lmagan majburiyatlarning ulushi	$\text{Barqaror bo'lmagan majburiyatlar} / \text{jami majburiyatlar} \times 100$	Ushbu ko'rsatkich bank majburiyatlari tarkibida qisqa muddatli yoki o'zgaruvchan manbalar ulushini ifodalaydi. Uning oshishi likvidlikni boshqarishda ehtiyotkorlikni kuchaytirish zaruratini bildiradi.
3.	Bank kapitalining ulushi	$\text{Kapital} / \text{passiv} \times 100$	Bank kapitalining resurslar tarkibidagi minimal miqdori 10 % darajada bo'lishi talab etiladi. Bu ko'rsatkich bankning moliyaviy mustahkamligini ta'minlaydi.
4.	Qoplash koeffitsiyenti	$\text{Kapital} / \text{majburiyatlar} \times 100$	Ushbu koeffitsiyentning optimal qiymati 15 % atrofida bo'lishi bank resurslarini xavfsiz tarzda qoplash imkonini beradi.
5.	Tijorat banki depozitlarining yetarliligi	$\text{Talab qilib olinguncha depozitlar} / \text{jami depozitlar} \times 100$	Ko'rsatkichning eng yuqori me'yoriy darajasi 30 % bo'lib, bu bank depozit portfelining likvidlik jihatidan muvozanatli shakllanganini bildiradi.
6.	Depozit resurslarining barqaror qismi	$\text{Barqaror depozitlar} / \text{jami depozitlar} \times 100$	Ko'rsatkichning minimal me'yoriy darajasi 75 % etib belgilangan bo'lib, bu bank resurslarining barqarorligi va mijozlar ishonchining yuqoriligini ifodalaydi.
7.	CASA ko'rsatkichi	$(\text{Talab qilib olinguncha depozitlar} + \text{jamg'arma depozitlar}) / \text{jami depozitlar} \times 100$	Mazkur ko'rsatkich bankning arzon resurs manbalarini aks ettiradi. Uning past bo'lishi bank rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.
8.	Depozitlarning muddatlari bo'yicha tuzilishi koeffitsiyenti	$\text{Muddatli va jamg'arma depozitlar} / \text{jami depozitlar}$	Ko'rsatkichning optimal qiymati 0,7–0,8 oralig'ida bo'lishi bank resurslarining muddat jihatidan muvozanatli va barqaror shakllanganini anglatadi.
9.	Depozitlar bo'yicha kapitalning yetarliligi	$\text{O'z kapitali} / \text{jami depozitlar} \times 100$	Mazkur ko'rsatkich bank mijozlarining mablag'larini o'z kapitali hisobidan qoplash imkoniyatini ifodalaydi. Optimal qiymat kamida 10 % bo'lishi maqsadga muvofiq.
10.	Mijozlar bazasi ko'rsatkichi	$(\text{Aholi omonatlari} + \text{yuridik shaxslar mablag'lari}) / \text{jami jalb qilingan mablag'lar} \times 100$	Ushbu ko'rsatkich kamida 80 % bo'lishi kerak. Bu bank resurslarining asosiy qismini ishonchli mijozlar mablag'lari tashkil etayotganini bildiradi.
11.	Banklararo kreditlarning jami jalb qilingan mablag'lar tarkibidagi ulushi	$\text{Banklararo kreditlar} / \text{majburiyatlar} \times 100$	Ko'rsatkichning 35 % dan oshmasligi maqsadga muvofiq. Bu bankning tashqi moliyaviy manbalarga ortiqcha tayanmasligini ta'minlaydi.
12.	Banklararo kreditlarning resurslar tarkibidagi ulushi	$\text{Banklararo kreditlar} / \text{passiv} \times 100$	Ko'rsatkich 20 % dan oshmasligi tavsiya etiladi. Bu bank resurslarining mustaqilligi va xavf darajasining pastligini anglatadi.
13.	Jismoniy shaxslar depozitlarining resurslar tarkibidagi ulushi	$\text{Jismoniy shaxslar depozitlari qoldig'i} / \text{resurslar} \times 100$	Mutaxassislar tavsiyasiga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 20–25 % oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu bank resurslarining diversifikatsiyasini ta'minlaydi.
14.	Omonatlarning harakatchanligi koeffitsiyenti	$(\text{Davri oxiridagi omonatlar qoldig'i} - \text{davri boshidagi omonatlar qoldig'i}) / \text{ma'lum davr uchun jami omonatlar kirimi}$	Mazkur ko'rsatkich aholi omonatlarining barqarorlik darajasini ifodalaydi hamda bankning depozit siyosati samaradorligini baholash imkonini beradi.
15.	Xorijiy valyutadagi majburiyatlarning ulushi	$\text{Xorijiy valyutadagi majburiyatlar} / \text{jami majburiyatlar} \times 100$	Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu ko'rsatkich 20–30 % oralig'ida bo'lishi tavsiya etiladi. Bu valyuta risklarini kamaytirish va milliy valyutada barqarorlikni saqlashga yordam beradi.



Barqaror depozitlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

Barqaror depozitlar tarkibiga quyidagi komponentlar kiradi:

- talab qilib olinadigan depozitlarning barqaror qoldig'i;
- muddatli depozitlar;
- jamg'arma depozitlar.

Talab qilib olinadigan depozitlarning barqaror qoldig'i quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$TQOQBQ = [(TQODO'S) / TQOODHRKO] \times 100\%$$

Bunda:

TQOQBQ – talab qilib olinadigan depozitlarning barqaror qoldig'i;

TQODO'S – talab qilib olinadigan depozitlarning o'rtacha summasi;

TQOODHRKO – talab qilib olinadigan depozit hisobraqamlari bo'yicha kredit aylanmasi.

Ushbu ko'rsatkich bankning qisqa muddatli depozitlar tarkibidagi barqaror qismini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bank likvidligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, jalb qilingan resurslarning muddatlar bo'yicha tuzilishi ham tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Resurslarning muddati qanchalik uzoq bo'lsa, ularning sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Shu bois, ushbu ko'rsatkich banklarning resurs bazasi mustahkamligini tavsiflovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Barqaror bo'lmagan majburiyatlar deganda, odatda quyidagilar tushuniladi:

- 1 oygacha bo'lgan qisqa muddatli depozitlar;
- banklardan olingan qisqa muddatli kreditlar;
- talab qilib olinadigan depozitlar;
- boshqa qisqa muddatli majburiyatlar.
- Barqaror majburiyatlar esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- 1 yildan ortiq muddatli depozitlar;
- subordinar qarzlari;
- bank kapitali.

Mazkur tasnif bank majburiyatlari tuzilmasini tahlil qilish, ularning likvidlikka ta'sirini baholash va barqaror resurs manbalarini shakllantirishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi

2. Solishtirma (qiyosiy) yondashuv

Banklar resurs bazasi mustahkamligini ta'minlash uchun ularning resurslarini aktivlar yoki boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar bilan solishtirma tahlil qilish zarur. Bunday tahlil bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va rentabelligini chuqur baholash imkonini beradi. Natijada banklar va investorlar oqilona qarorlar qabul qilish, boshqaruv samaradorligini aniqlash, shuningdek, mablag'larni investitsiyalarga yo'naltirish yoki kredit siyosatini shakllantirishda ishonchli asosga ega bo'ladi.

Solishtirma tahlil doirasida sof foizli spread (interest spread) koeffitsiyentini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu ko'rsatkich farqlilikni aks ettiruvchi muhim indikator bo'lib, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Sof foizli spread} = \left(\frac{\text{Olingan foizli daromadlar}}{\text{Kredit portfeli}} \times 100 \right) - \left(\frac{\text{To'langan foizli xarajatlar}}{\text{Foiz to'lanadigan depozitlar summasi}} \times 100 \right)$$

Xalqaro moliya institutlari ekspertlarining fikriga ko'ra, sof foizli spreadning normativ darajasi 1,25 foiz atrofida bo'lishi bank uchun maqbul hisoblanadi.

Sof foizli spread tijorat banklarining resurs bazasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi bankka depozitlar va kreditlar bo'yicha raqobatbardosh shartlarni taklif etish, resurs bazasining narxini optimallashtirish hamda uning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Aksincha, sof foizli spreadning past bo'lishi bankning resurs bazasini kengaytirish va uni ushlab qolish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu holat bankning rentabelligi va umumiy foydasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, banklar sof foizli spreadni doimiy ravishda monitoring qilib borishlari, uning resurs bazasiga ta'sirini chuqur tahlil qilishlari va kerakli strategik qarorlarni o'z vaqtida qabul qilishlari lozim.

Shunday qilib, sof foizli spreadni va boshqa solishtirma ko'rsatkichlarni tahlil qilish tijorat banklarining resurs bazasi barqarorligini baholashda, ularning moliyaviy holatini monitoring qilishda hamda investorlar ishonchini oshirishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Quyida tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ifodalovchi solishtirma (qiyosiy) ko'rsatkichlar tizimi jadval ko'rinishida keltiriladi (2-jadval).



2-jadval. Tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ifodalovchi solishtirma (qiyosiy) ko'rsatkichlar tizimi

№	Ko'rsatkich nomi	Formula	Iqtisodiy mazmuni va ahamiyati
1.	Kreditlarning depozitlarga nisbati (Loan to Deposit Ratio)	$\text{Kredit} / \text{Depozit} \times 100$	Ushbu ko'rsatkich bankning likvidlik darajasini ifodalaydi. Ko'rsatkichning ortib borishi bank likvidligining pasayishini anglatadi, ammo haddan tashqari past bo'lishi bank foydasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Optimal darajada bo'lishi barqaror faoliyatni ta'minlaydi.
2.	Regulyativ kapital yetarliligi	$\text{Regulyativ kapital} / \text{Riskka tortilgan aktivlar} \times 100$	Bank kapitalining risklarga nisbatan yetarliligini ko'rsatadi. Bazel talablari bo'yicha bu ko'rsatkich kamida 8% bo'lishi kerak.
3.	I-darajali kapital yetarliligi	$\text{I-darajali kapital} / \text{Riskka tortilgan aktivlar} \times 100$	Bankning yuqori sifatli kapitali yetarliligini baholaydi. Bazel standartlariga ko'ra, 6% va undan yuqori qiymat ijobiy hisoblanadi.
4.	I-darajali asosiy kapital yetarliligi	$\text{I-darajali asosiy kapital} / \text{Riskka tortilgan aktivlar} \times 100$	Bankning asosiy kapitali yetarliligini ifodalaydi. Bazel talablari bo'yicha bu ko'rsatkich kamida 5% darajada bo'lishi zarur.
5.	Leveraj koeffitsiyenti	$\text{I-darajali (asosiy) kapital} / (\text{Umumiy aktivlar} + \text{Balansdan tashqari vositalar} + \text{Hosilaviy vositalar} - \text{Nomoddiy aktivlar})$	Bazel qo'mitasi tavsiyasiga ko'ra, I-darajali asosiy kapital uchun minimal leveraj koeffitsiyenti 2,5%, I-darajali kapital uchun esa 3% etib belgilangan. Bu ko'rsatkich bankning aktivlariga nisbatan kapital barqarorligini baholaydi.
6.	Qarz yuki limiti	$\text{I-darajali kapital} / (\text{Balans va balansdan tashqari aktivlar}) \times 100$	Mazkur ko'rsatkich bankning qarz majburiyatlari darajasini ifodalaydi. Bazel talablariga muvofiq, bu ko'rsatkich 3% dan oshmasligi lozim.
7.	Aktivlar rentabelligi (ROA)	$\text{Sof foyda} / \text{Aktivlarning o'rtacha qiymati} \times 100$	Bank aktivlarining foyda keltirish darajasini ko'rsatadi. ROA ko'rsatkichi 1% dan yuqori bo'lsa, bank faoliyati samarali hisoblanadi. Eng muhimi, bu ko'rsatkich ijobiy qiymatga ega bo'lishi kerak.
8.	Kapital rentabelligi (ROE)	$\text{Sof foyda} / \text{Xususiy kapital} \times 100$	Bank kapitalining rentabellik darajasini aks ettiradi. ROE 10% dan yuqori bo'lsa, bankning moliyaviy faoliyati samarali deb baholanadi.
9.	Resurs bazasi barqarorligi koeffitsiyenti	$\text{Ma'lum davrdagi mijozlar mablag'larining o'rtacha qoldig'i} / \text{Ma'lum davrdagi mijozlar hisobraqamlaridagi kredit aylanmasi}$	Bank resurs bazasining barqaror qismini aniqlaydi. Ko'rsatkichning yuqori qiymati bank resurslarining barqarorligini hamda likvidlikning yetarliligini bildiradi.

Xalqaro bank amaliyotida yuqorida keltirilgan tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ifodalovchi solishtirma (qiyosiy) ko'rsatkichlar tizimi keng qo'llanilib kelinadi. Mazkur ko'rsatkichlar banklarning moliyaviy barqarorligini, likvidlik darajasini va kapital yetarliligini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ushbu ko'rsatkichlardan to'liq hajmda foydalanish ayrim mamlakatlar amaliyotida turli sabablarga ko'ra cheklangan bo'lib qolmoqda.

Birinchidan, xalqaro standartlarga muvofiq ko'pchilik mamlakatlarda banklarning hajmi uncha yirik emas. Shuning uchun bu mamlakatlarda tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini baholashda asosan aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad, xarajat, foyda, muddati o'tgan kreditlar kabi miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bu yondashuv bank faoliyatini soddalashtirilgan shaklda tahlil qilishga imkon beradi.

Ikkinchidan, ayrim mamlakatlarda banklar resurs bazasining mustahkamligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar odatda miqdoriy o'sish sur'atlari orqali ifodalanadi. Bunda bank resurslari, foyda va kapitaldagi o'zgarishlar ma'lum davrlar kesimida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, G'arb davlatlarining bank tizimi metodologiyasida solishtirma (qiyosiy) ko'rsatkichlar tizimiga alohida e'tibor qaratilib, bu usul banklarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, rivojlangan mamlakatlarda banklar faoliyati muntazam ravishda keng ko'lamli ilmiy va amaliy tahlillar asosida baholanadi. Bunda yuqori malakali mutaxassislar va tahlilchilar ishtirok etadi, ularning xulosalari asosida asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bu esa bank tizimining barqarorligi va ishonchligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



O'tish davri risklari esa ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ularga texnologik yutuqlar, hukumat siyosatidagi islohotlar, past uglerodli iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi o'zgarishlar va investorlar yoki iste'molchilarning ekologik ongining kuchayishi kiradi. Muntazam monitoring o'tkazib borilayotganiga qaramay, mazkur risk omillari o'z hajmi va yuzaga kelish davrining murakkabligi sababli moliyaviy tizimga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki guruhi va Xalqaro hisob-kitoblar banki kabi nufuzli institutlar tomonidan stress-test tamoyillari hamda ilg'or xalqaro amaliyot asosida yo'riqnomalar ishlab chiqilgan. Xususan, Bazel qo'mitasining 2018-yilda e'lon qilingan stress-testlar bo'yicha yangilangan tamoyillari bank muassasalari va nazorat organlariga stress-testning maqsadlari, ularni risklarni boshqarish vositasi sifatida qo'llash va natijalarni baholash bo'yicha metodologik ko'rsatmalar beradi.

Risklarning ayrim turlari siklik xususiyatga ega bo'lgani sababli, faqat o'tgan davr ma'lumotlarini tahlil qilish orqali stress-test o'tkazish risklarni to'liq baholash imkonini bermaydi. Shu boisdan, tarixiy ssenariylar bilan bir qatorda gipotetik ssenariylarni — ya'ni maksimal risk va ehtimoliy yo'qotishlarni hisobga oluvchi modellarni ishlab chiqish zarur.

Bugungi kunda bank tizimida yuzaga kelayotgan global moliyaviy o'zgarishlar va iqtisodiy shoklarga moslashish, shuningdek, barqaror faoliyatni ta'minlash uchun yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Shunday vositalardan biri — stress-test usuli bo'lib, u tijorat banklarining resurs bazasi barqarorligini baholashda muhim diagnostik vosita sifatida qo'llanilmoqda. Ushbu usul yordamida aniqlangan potensial tahdidlar ba'zida to'liq namoyon bo'lmasligi mumkin, ammo bu holat stress-test metodologiyasini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini baholashga qaratilgan ko'rsatkichlar tizimi ilmiy asoslangan individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u regulyatorlar va nazorat organlari uchun tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini chuqur tahlil etish hamda risklarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'lida metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/en/docs/-5841063>
2. Ширинская Е.Б., Пономарева Н.А., Купчинский В.А. Финансово-аналитическая служба в банке: Практическое пособие. — Москва: ФБК-ПРЕСС, 1998. — 144 с.
3. Иванов В.В. Надежность вашего банка. — Москва: ФБК-ПРЕСС, 1997. — 174 с.
4. Поморина М.А. Планирование как основа управления деятельностью банка. — Москва: Финансы и статистика, 2002. — 382 с.
5. Гиляровская Л.Т., Паневина С.Н. Комплексный анализ финансово-экономических результатов деятельности банка и его филиалов: учебное пособие для вузов. — Санкт-Петербург: Питер, 2003. — 240 с.
6. Батракова Л.Г. Экономический анализ деятельности коммерческого банка: учебник. — Москва: Логос, Университетская книга, 2007. — 368 с.
7. Altman, Edward I. "Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy." Journal of Finance, 1968-yil sentyabr, pp. 189–209.
8. RREconomic ilmiy jurnali. <https://reconomic.ru/journal/article/2162/> — internet manbasi.
9. Risk Management Association (RMA). <https://www.rmahq.org/> — internet manbasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
